

RAQAMLI IQTISODIYOTNING IJTIMOYIY-IQTISODIY TA’SIRI VA MUAMMOLARI

Maxmudova Zoxida Maqsudali qizi,

Abdiualiyeva Gulzada Azatovna,

O‘zbekiston Milliy Universiteti 4-talabalari,

Gmail:makhmudovazokhida@gmail.com

Gmail:abdiualiyevagulzada@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyotning ijtimoiy-iqtisodiy ta’siri va muammolari tahlil qilingan. Raqamli transformatsiyaning asosiy drayverlaridan boshlab, uning iqtisodiy o’sish, innovatsiyalar, mehnat bozori va global savdoga ta’sirigacha bo‘lgan masalalar ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, raqamli iqtisodiyotning ish o‘rinlari yo‘qolishi, raqamli tafovut, kiberxavfsizlik muammolari kabi salbiy oqibatlari ham muhokama qilingan. Maqolada ijtimoiy muammolar, jumladan ijtimoiy aloqalarning o‘zgarishi, raqamli texnologiyalarga qaramlik va ta’lim tizimining yangi talablarga moslashuvi masalalari ham yoritilgan. Yakuniy qismda raqamli iqtisodiyotning kelajak istiqbollari va uni samarali boshqarish yo‘llari taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, raqamli transformatsiya, innovatsiyalar, mehnat bozori, kiberxavfsizlik, raqamli tafovut, ijtimoiy muammolar, raqamli ko‘nikmalar.

СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПОСЛЕДСТВИЯ И ПРОБЛЕМЫ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ

Аннотация. В данной статье анализируются социально-экономические последствия и проблемы цифровой экономики. Рассматриваются вопросы: от основных движущих сил цифровой трансформации до ее влияния на экономический рост, инновации, рынок труда и глобальную торговлю. Также обсуждались негативные последствия цифровой экономики, такие как потеря рабочих мест, цифровой разрыв и проблемы кибербезопасности. В статье также рассматриваются социальные проблемы, в том числе изменения в общественных отношениях, зависимость от цифровых технологий и адаптация системы образования к новым требованиям. В заключительной части предлагаются будущие перспективы цифровой экономики и пути ее эффективного управления.

Ключевые слова: цифровая экономика, цифровая трансформация, инновации, рынок труда, кибербезопасность, цифровой разрыв, социальные проблемы, цифровые навыки.

SOCIO-ECONOMIC IMPACT AND PROBLEMS OF THE DIGITAL ECONOMY

Annotation. This article analyzes the socio-economic impact and problems of the digital economy. Issues are considered from the main drivers of digital transformation to its effects on economic growth, innovation, the labor market, and global trade. The negative consequences of the digital economy, such as the loss of jobs, the digital divide, and cyber security issues were also discussed. The article also covers social problems, including changes in social relations, dependence on digital technologies, and adaptation of the education system to new requirements. The final part offers the prospects of the digital economy and how it can be effectively managed.

Keywords: digital economy, digital transformation, innovation, labor market, cyber security, digital divide, social issues, digital skills.

“Raqamli iqtisodiyot” atamasi hozirgi zamonaviy jamiyatning ajralmas qismi bo‘lib qoldi. Raqamli iqtisodiyot – axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida faoliyat yurituvchi iqtisodiy tizimdir. Shuningdek, jismoniy shaxslar, korxonalar, qurilmalar, ma’lumotlarni raqamli texnologiyalar orqali ulash natijasida yuzaga keladigan iqtisodiy faoliyat tushuniladi.

Jahon bankining ma’lumotlariga ko‘ra, 2016-yil butun dunyo bo‘ylab raqamli iqtisodiyotning qiymati 11,5 mln AQSh dollariga teng bo‘lib, bu esa global YaIMning 15,5 foizini tashkil etgan. Raqamli iqtisodiyotning yutuqlaridan biri asosan internet foydalanuvchilarining ulushi oshishi va foydalanuvchilar uchun ma’lumotlarning ko‘payishi bilan bog‘liq. 2025-yilga kelib, internet sanoti ulkan o‘shishga erishishi, shu bilan birgalikda barcha sohalarning raqamlashtirilishi va rivojlanishi kutilmoqda. O‘sha vaqtga kelib, raqamli iqtisodiyot ulushi yanada kengayib, global YaIMning 24,3 foizgacha o‘shishi kutilmoqda.¹

Raqamli transformatsiya zamonaviy iqtisodiyot va ijtimoiy hayotda muhim o‘zgarishlarni amalga oshiradigan jarayon bo‘lib, uning amalga oshirilishida bir qator texnologiyalar muhim rol o‘ynaydi. Ushbu drayverlar korxonalar, davlat idoralari va jismoniy shaxslar tomonidan iqtisodiy samaradorlikni oshirish, innovatsion imkoniyatlarni kengaytirish va raqobatbardoshlikni mustahkamlash uchun keng qo‘llaniladi. Raqamli transformatsiyaning asosiy drayverlariga esa sun‘iy intellekt, katta ma’lumotlar, bulutli texnologiyalar, IoT (narsalar internet), 5G texnologiyalari kiradi. Ushbu texnologik drayverlar orqali raqamli iqtisodiyotning ijobiy ta’siri bir necha yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi.

1. Iqtisodiy o‘shish va innovatsiyalar:

¹ Digital Spillover | Measuring the true impact of the digital economy

Yangi biznes modellarining paydo bo‘lishi. Raqamli transformatsiya yangi biznes modellarining paydo bo‘lishiga turtki bo‘lib, innovatsion imkoniyatlarni kengaytiradi. Sun‘iy intellekt va katta ma‘lumotlar texnologiyalari orqali kompaniyalar mijozlar ehtiyojlarini aniqroq aniqlash va ularni qondirish uchun innovatsion yechimlarni joriy etishga imkoniyat yaratmoqda. Masalan, onlayn platformalar orqali yangi mahsulotlar va xizmatlar taqdim etilishi bilan bozor talablari tezda o‘zgaradi, bu esa korxonalarini moslashuvchanlikka majbur qiladi.

Startup ekotizimining rivojlanishi. Raqamli texnologiyalar orqali startaplar ekotizimi rivojlanib, yangi kompaniyalar tezda o‘z o‘rnini topa oladi. Bulutli texnologiyalar va IoT orqali startaplar o‘z mahsulotlarini tez va arzon ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo‘lib, bozorda o‘z mijozlarini topishiga yordam beradi. Yangi biznes modellarining paydo bo‘lishi startaplar uchun katta imkoniyatlar ochadi va ularning global bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi. 2023-yilda dunyo bo‘ylab startaplarga kiritilgan investitsiyalar hajmi 294 mlrd dollarni tashkil etdi, ammo 2022-yilda bu yo‘nalishning rivojlanishi uchun 462 mlrd dollar miqdorda investitsiya qilingan.²

Raqamli platformalar va ularning iqtisodiyotdagi o‘rni. Raqamli platformalar raqamli iqtisodiyotning ajralmas qismi bo‘lib, ular mahsulotlar va xizmatlarni iste‘molchilar bilan tez va samarali tarzda bog‘lash imkonini beradi. Misol uchun, elektron tijorat platformalari savdo-sotiqni soddalashtirib, xaridorlarga va sotuvchilarga global miqyosda o‘zaro munosabat o‘rnatish imkonini yaratmoqda. Ushbu platformalar bozorni kengaytiradi, raqobatni oshiradi va iqtisodiy o‘sishga katta hissa qo‘shadi.

2. Mehnat bozorining o‘zgarishi.

Masofaviy ish imkoniyatlarining kengayishi. Raqamli iqtisodiyot mehnat bozorida masofaviy ish imkoniyatlarining kengayishiga sabab bo‘lmoqda. 5G texnologiyalari va bulutli xizmatlar tufayli xodimlar istalgan joyda samarali ishlash imkoniga ega bo‘lishmoqda, bu esa ish va hayot muvozanatini yaxshilaydi. Masofaviy ish tufayli korxonalar global miqyosda eng yaxshi mutaxassislarni jalb qilishlari mumkin, bu esa ularning innovatsion imkoniyatlarini kengaytiradi.

Yangi kasblarning paydo bo‘lishi. Raqamli transformatsiya jarayoni mehnat bozorida yangi kasblarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Sun‘iy intellekt va katta ma‘lumotlar tahlili sohalarida yangi mutaxassisliklar yaratilmoqda. Buning natijasida kasblar ko‘lami kengaytirilib, xodimlar uchun yangi ish imkoniyatlari ochilmoqda.

Mehnat unumdorligining oshishi. Raqamli texnologiyalar orqali mehnat unumdorligi sezilarli darajada oshadi. IoT va avtomatlashtirish jarayonlari tufayli ish

² <https://www.linkedin.com/pulse/global-startup-investment-report-2023-harry-crick-snyoe#:~:text=Executive%20Summary%20In%202023,the%20preceding%20year's%20%24462%20billion.>

jarayonlari soddalashtiriladi, bu esa vaqt va resurslarni tejashga olib keladi. Xodimlar o‘z vazifalarini tezroq va samaraliroq bajarish imkoniga ega bo‘lib, ishlab chiqarish jarayonlari samaradorligi oshadi. Bu esa korxonalarining raqobatbardoshligini mustahkamlaydi va iqtisodiy o‘shishga hissa qo‘shadi.

3. Xizmatlar sifatining yaxshilanishi.

Raqamli davlat xizmatlari. Raqamli transformatsiya davlat xizmatlari sifatini yaxshilashda muhim rol o‘ynamoqda. Elektron hukumat texnologiyalari yordamida davlat idoralari fuqarolarga tezkor va qulay xizmat ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Fuqarolar davlat xizmatlariga onlayn murojaat qilish, hujjatlarni elektron shaklda olish va davlat bilan bo‘ladigan barcha muomalalarni raqamli shaklda amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘lib, bu jarayonlarning samaradorligini oshiradi.

Sog‘liqni saqlash va ta‘lim sohalarida raqamlashtirish. Sog‘liqni saqlash va ta‘lim sohalarida raqamlashtirish jarayonlari xizmatlar sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi. Sun‘iy intellekt va IoT orqali tibbiyot sohasida kasalliklarni aniqlash, davolash jarayonlarini optimallashtirish va ma‘lumotlarni boshqarish imkoniyatlari yaratilmoqda. Ta‘lim sohasida esa raqamli texnologiyalar yordamida interaktiv darslar, onlayn kurslar va shaxsiylashtirilgan o‘quv jarayonlari tashkil etiladi, bu esa o‘quvchilarning bilim olish jarayonida samarali yordam beradi.

Mijozlar tajribasining yaxshilanishi. Raqamli texnologiyalar mijozlar tajribasini yaxshilashda katta rol o‘ynaydi. Katta ma‘lumotlar tahlili va sun‘iy intellekt yordamida korxonalar mijozlar ehtiyojlarini yaxshiroq tushunib, ularga shaxsiylashtirilgan xizmatlar ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lishmoqda. Bulutli texnologiyalar orqali mijozlar xizmatlar va mahsulotlarga tezkor kirish imkoniyatiga ega bo‘lib, mijozlarga qulaylik va qoniqish hissi yaratadi.

4. Global bozorga kirish imkoniyati.

Kichik va o‘rta biznes uchun yangi imkoniyatlar. Raqamli iqtisodiyot kichik va o‘rta biznes tadbirkorlari uchun global bozorga kirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Elektron tijorat va onlayn platformalar orqali bizneslar o‘z mahsulotlarini global miqyosda sotish va yangi mijozlar bilan aloqalarni o‘rnatish imkoniga ega bo‘lishmoqda. Bu esa ularning raqobatbardoshligini oshirishda va iqtisodiy o‘shishga hissa qo‘shishda muhim rol o‘ynaydi.

Xalqaro savdoning rivojlanishi. Raqamli texnologiyalar xalqaro savdoning rivojlanishiga katta turtki bermoqda. Internet orqali savdo jarayonlarini soddalashtirish va tezlashtirish imkoniyati xalqaro bozorlarning o‘shishiga olib kelmoqda. Elektron tijorat platformalari orqali xaridorlar va sotuvchilar global miqyosda tezkor va qulay savdo aloqalarini o‘rnatish imkoniga ega bo‘lishmoqda, bu esa iqtisodiy hamkorlik va savdo hajmini oshiradi.

Raqamli valyutalar va to‘lov tizimlari. Raqamli valyutalar va to‘lov tizimlari global savdoni qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynamoqda. Kriptovalyutalar va

elektron to'lov tizimlari orqali xalqaro to'lovlar va savdo operatsiyalarini amalga oshirish osonlashadi, bu esa iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlashga yordam beradi. Ushbu texnologiyalar orqali korxonalar va iste'molchilar global miqyosda tez va xavfsiz to'lovlar amalga oshirish imkoniga ega bo'ladi.

Raqamli iqtisodiyotning ijobiy ta'sirlari bilan birgalikda o'ziga xos muammolari bor:

1. Ish o'rinlarning yo'qolishi. Raqamlashtirish va avtomatlashtirish natijasida ko'plab ish o'rinlari yo'qolib bormoqda. McKinsey xalqaro institute prognoziga ko'ra, 2030-yilga kelib, global miqyosda 400-800 million ish o'rnining avtomatlashtirilishi mumkin.³ Bu malakasiz ishchilar uchun bir qancha muammolarni olib kelishi mumkin.

2. Raqamli tafovut. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi raqamli tafovut tobora kengayib bormoqda. Xalqaro telekommunikatsiya ittifoqi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda rivojlangan mamlakatlarda 89 foiz aholi qatlami 5G internet tarmog'i bilan ta'minlangan bo'lsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda deyarli bu tarmoq mavjud emas.⁴ Shahar va qishloq aholisi o'rtasidagi tafovut ham katta muammo bo'lib qolmoqda. Ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda qishloq aholisining internet va raqamli xizmatlarga kirish imkoniyati cheklangan.

3. Kiberxavfsizlik muammolari. Raqamli iqtisodiyot kiberjinoyatchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Ma'lumotlar bazalarining xavfsizligi ham jiddiy muammo bo'lib qolmoqda. Yirik kompaniyalar va davlat tashkilotlarining ma'lumotlar bazalariga kirib olish holatlari tez-tez uchrab turmoqda, bu esa millionlab odamlarning shaxsiy ma'lumotlari xavf ostida qolishiga olib kelmoqda.

Raqamli iqtisodiyot rivojlanishi bilan ijtimoiy hayotda sezilarli o'zgarishlar yuzaga kelmoqda. Ushbu o'zgarishlar jamiyatning har bir qatlamiga ta'sir ko'rsatib, muammolar jamiyatning turli sohalarida o'z aksini topmoqda. Quyida raqamli iqtisodiyotning ijtimoiy muammolari haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan:

1. Ijtimoiy aloqalarning o'zgarishi. Virtual muloqotning kuchayishi an'anaviy ijtimoiy aloqalarga ta'sir ko'rsatmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi odamlarning o'zaro munosabatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ba'zi tadqiqotlar ijtimoiy media platformalaridan haddan tashqari foydalanish depressiya va yolg'izlik hissini kuchaytirishi mumkinligini ko'rsatmoqda.

2. Raqamli texnologiyalarga qaramlik. Internet va o'yin qaramligi, ayniqsa yoshlar orasida, jiddiy muammoga aylanmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) 2018-yilda o'yin qaramligini rasman kasallik sifatida tan oldi.⁵ Bolalar va

³ <https://www.mckinsey.com/featured-insights/future-of-work/jobs-lost-jobs-gained-what-the-future-of-work-will-mean-for-jobs-skills-and-wages>

⁴ <https://www.itu.int/en/mediacentre/Pages/PR-2023-11-27-facts-and-figures-measuring-digital-development.aspx>

⁵ <https://www.who.int/standards/classifications/frequently-asked-questions/gaming-disorder>

o'smirlar uchun onlayn muhitdagi xavflar, jumladan, kiberbulling (onlayn-qo'rqitish) va zararli kontentga duch kelish xavfi ortib bormoqda.

3. Ta'lim tizimining yangi talablarga moslashuvi. Masofaviy ta'limning rivojlanishi ta'lim tizimi oldiga yangi vazifalar qo'ymoqda. COVID-19 pandemiyasi davrida ko'plab mamlakatlar masofaviy ta'limga o'tishga majbur bo'ldi, bu esa raqamli infrastruktura va o'qituvchilarning raqamli ko'nikmalari yetarli emasligini ko'rsatdi.

Raqamli iqtisodiyotning ijtimoiy muammolari bilan birgalikda iqtisodiy muammolari ham mavjud:

1. Monopoliyalarning shakllanishi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida texnologik gigantlarning bozorni egallab olishi kuzatilmoqda. Masalan, FAANG (Facebook, Amazon, Apple, Netflix, Google) kompaniyalari o'z sohalarida deyarli monopol mavqega ega. Bu holat raqobat muhitining buzilishiga olib kelmoqda. Yevropa Ittifoqi va AQSh hukumati bu kompaniyalarga qarshi antimonopol choralar ko'rishga majbur bo'lmoqda. Kichik biznes uchun yirik raqamli platformalar bilan raqobatlashish tobora qiyinlashmoqda. Bu esa innovatsiyalar va iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

2. Soliq tizimining murakkablashuvi. Raqamli kompaniyalarni soliqqa tortish global muammoga aylanmoqda. Ko'plab texnologiya kompaniyalari soliqlardan qochish uchun offshor zonalardan foydalanmoqda. OECD ma'lumotlariga ko'ra, bu amaliyot natijasida davlatlar har yili 100-240 milliard dollar soliq daromadlarini yo'qotmoqda.⁶

3. An'anaviy biznes modellarining inqirozi. Raqamli iqtisodiyot ko'plab an'anaviy sohalarga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Chakana savdo sektorida elektron tijorat kompaniyalari an'anaviy do'konlar bilan keskin raqobatlashmoqda. AQShda 2023-yilda onlayn-savdo umumiy chakana savdoning 19% ini tashkil etdi.⁷

Bank sektorida fintech kompaniyalari an'anaviy banklarning bozor ulushini qisqartirmoqda. Blokcheyn texnologiyasi va kriptovalyutalar moliya sohasini tubdan o'zgartirishi mumkin.

Bu muammolarni hal qilish uchun mamlakatlar huquqni tartibga solish ishlarini amalga oshirish bilan birgalikda xalqaro huquqiy hamkorlikni kuchaytirishlari muhim rol o'ynamoqda. Shuningdek, maktab va oliy ta'lim dasturlarini yangilash, ularga dasturlash, ma'lumotlar tahlili kabi fanlarni kiritish zarur.

Raqamli iqtisodiyot jamiyat va iqtisodiyotning barcha jabhalariga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. U ko'plab ijobiy o'zgarishlar, jumladan iqtisodiy o'sish, innovatsiyalar va xizmatlar sifatining yaxshilanishiga olib kelmoqda. Yangi biznes modellarining

⁶ <https://www.oecd.org/en/topics/policy-issues/base-erosion-and-profit-shifting-beps.html>

⁷ <https://www.bigcommerce.com/articles/ecommerce/>

paydo bo'lishi, startaplar ekotizimining rivojlanishi va global bozorlarga kirish imkoniyatlarining kengayishi kuzatilmoqda. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyot bir qator jiddiy muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Ish o'rinlarining yo'qolishi, raqamli tafovut, kiberxavfsizlik xavflari, shaxsiy ma'lumotlar himoyasi va ijtimoiy aloqalarning o'zgarishi kabi masalalar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Kelajakda raqamli iqtisodiyotning roli yanada ortishi kutilmoqda. Sun'iy intellekt, 5G texnologiyalari, kvant hisoblash kabi innovatsiyalar iqtisodiyot va jamiyatni yanada chuqurroq o'zgartirishga qodir. Bu o'zgarishlar yangi imkoniyatlar bilan birga yangi qiyinchiliklarni ham olib kelishi mumkin.

Jamiyat va davlat oldida turgan asosiy vazifalar raqamli transformatsiyaga moslashish va uning ijobiy natijalaridan maksimal foydalanish, raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish va uzluksiz ta'lim tizimini yaratish, raqamli tafovutni kamaytirish, xavfsizlik va shaxsiy ma'lumotlar himoyasini ta'minlash, raqamli iqtisodiyotni samarali tartibga solish uchun qonunchilik bazasini takomillashtirishdan iborat.

Bu vazifalarni hal etish uchun davlat, biznes va fuqarolik jamiyatining birgalikdagi sa'y-harakatlari talab etiladi. Raqamli iqtisodiyotning barcha afzalliklaridan foydalangan holda, uning salbiy oqibatlarini minimallashtirish uchun kompleks yondashuv zarur. Bu esa innovatsion rivojlanish va iqtisodiy o'sishni ta'minlash bilan birga, ijtimoiy adolat va barqarorlikni saqlab qolishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. <https://www.techtarget.com/searchcio/definition/digital-economy>
Definition digital economy
2. Digital Spillover | Measuring the true impact of the digital economy
3. <https://www.weforum.org/agenda/2022/08/digital-trust-how-to-unleash-the-trillion-dollar-opportunity-for-our-global-economy/#:~:text=The%20World%20Bank%20estimates%20that,faster%20than%20physical%20world%20GDP>. Digital trust: How to unleash the trillion-dollar opportunity for our global economy
4. <https://online.kcl.ac.uk/blog/what-are-the-pros-and-cons-of-the-digital-economy>
What are the pros and cons of the digital economy?
5. <https://www.linkedin.com/pulse/global-startup-investment-report-2023-harry-crick-5nyoe#:~:text=Executive%20Summary%20In%202023,the%20preceding%20year's%20%24462%20billion>. Global Startup Investment Report – 2023
6. <https://www.mckinsey.com/featured-insights/future-of-work/jobs-lost-jobs-gained-what-the-future-of-work-will-mean-for-jobs-skills-and-wages> Jobs lost, jobs gained: What the future of work will mean for jobs, skills, and wages
7. <https://www.itu.int/en/mediacentre/Pages/PR-2023-11-27-facts-and-figures-measuring-digital-development.aspx> New global connectivity data shows growth, but divides persist
8. <https://www.bigcommerce.com/articles/ecommerce/>